

## O'LHASH VOSITALARINING O'LHASH SHAROITLARIDA NOANIQLIGINI ANIQLASH TAHLILLARI

**Qudratov Javohir Bahodir o‘g‘li**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,  
G‘alaba 27, Navoiy, O‘zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda har bir mutaxassis o‘z faoliyat sohasidagi parametrlarni va ularni o‘lhash usullarini, o‘lhash vositalarini, ularning texnikaviy tavsiflarini bilishlari zarur bo‘lgan noaniqlik ta’riflari va ayrim yechimlari keltirilgan. Bundan tashqari texnika yo‘nalishidagi mutaxassislar o‘lchanadigan va baholanadigan kattaliklarni nazorat qilish vositalari hamda ularni ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar haqidagi noaniqliklar haqida ma’lumotlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** texnikaviy tavsiflar, statik noaniqlik, dinamik noaniqlik, datchiklarining nochiziqliligi, kvantlash noaniqligi, analogli-raqamlı, operatorning noaniqliklari.

## ANALYZES FOR DETERMINING THE UNCERTAINTY OF MEASURING TOOLS IN MEASURING CONDITIONS

**Qudratov Javohir Bahodir o‘g‘li**

Navoi State University of mining and technology,  
Galaba 27, Navoiy, Uzbekistan

**Abstract:** In this article, definitions of uncertainty and some solutions are presented that every specialist needs to know about the parameters and their measurement methods, measuring tools, and their technical descriptions. In addition, the information about the uncertainty about the issues related to the control of quantities measured and evaluated by technical experts and their use was analyzed.

**Keywords:** technical specifications, static uncertainty, dynamic uncertainty, sensor nonlinearity, quantization uncertainty, analog-digital, operator uncertainties.

## KIRISH

Ma'lumki, respublikamizda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishishda eng avvalo, uning strategik maqsadlari belgilanib olindi. Bu maqsadlar ichida “raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlash” alohida ta'kidlab o'tilgan. Iqtisodiy islohotlarning ustivor sanalgan yo'nalishlarida ham quyidagilarni ko'rshimiz mumkin:

- ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor ekspertbob mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;
- mamlakatning eksport quvvatidan to'la-to'kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish.

Bu borada respublikamizda qisqa muddat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi va natijada O'zbekistonga faqat xomashyo zonasi sifatida qarashlarga barham berildi. Hozirgi kunda har bir mutaxassis o'z faoliyat sohasidagi parametrlarni va ularni o'lhash usullarini, o'lhash vositalarini, ularning texnikaviy tavsiflarini bilishlari zarur [1]. Bundan tashqari texnika yo'nalishidagi mutaxassislar o'lchanadigan va baholanadigan kattaliklarni nazorat qilish vositalari hamda ularni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni bilmog'i zarur.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri kattaliklarni yanada aniqroq o'lchaydigan mukammal nazorat-o'lhash asboblarini, qurilmalarini va tizimlarini yaratishdir.

Noaniqlik masalasini o'rganish metrologiya bo'yicha o'lhash usullari va vositalari hamda ularning metrologik tavsiflarini, o'lhash xatoliklari va ularni baholash kabi masalalarni bilishini taqozo etadi.

Bu esa bugungi kunda, ayniqsa, jahon andozalariga mos keluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlashda, eng muhim respublikamizning iqtisodiy salohiyatini oshirishda o'ta muhim masalalardan biri sanaladi.

### *Asbobiy noaniqliklar*

Asbobiy noaniqliklar - o'lhash vositalarining takomillashmaganligiga bog'liq bo'lgan noaniqliklardir. Bunday noaniqliklarga, masalan, analitik tarozilarning aniqlik chegaralari; qayd qilinadigan temperaturadan farqlanuvchi o'rtacha temperaturani ta'minlovchi temperatura rostlagichining mavjudligi; ortiqcha yuklama effektiga uchrashi mumkin bo'lgan avtomatik analizator; o'lhash vositalarning ishlash prinsipiga kirgan noaniqliklar; o'lhash vositasini tayyorlash texnologiyasi yoki konstruksiyasidagi kamchilikka bog'liq bo'lgan noaniqliklar va h.k. kirishi mumkin.

O'lhash vositalarning ishlash prinsipiga kirgan noaniqliklar. Bu noaniqliklar, o'lhash vositasidan foydalanish tartibiga qarab, statik va dinamik noaniqliklarga ajraladi. Statik noaniqlik - o'lhash vaqt davomida o'lchami o'zgarmas deb hisoblangan kattalikni o'lhash noaniqligidir [2]. Dinamik noaniqlik – o'lchanayotgan kattalikning o'lchami o'zgarmaydi, deb bo'lmaydigan dinamik o'lhashlar vaqtida statik noaniqlikka qo'shimcha ravishda paydo bo'ladigan o'lhashlar noaniqligining tashkil etuvchisidir. Dinamik noaniqlik ikki omilga: o'lhash vositasining dinamik xossalari va o'lchanadigan kattalikning vaqt ichida o'zgarish xarakteriga qarab aniqlanadi [1].

Bu turdag'i statik noaniqlikka o'lhash vositasi almashtirish funksiyasining nochiziqligiga bog'lik bo'lgan noaniqlik misol bo'la oladi. Masalan, Guk qonunining keng oraliqda nochiziqliligi, temperaturani o'lhashda temperatura datchiklarining nochiziqliligi, o'zgaruvchan tok voltmetrlarining chastotaviy noaniqliklari tufayli statik noaniqliklar kelib chiqadi. Dinamik noaniqliklarga o'lhash vositalarining inersion xossalari (temperaturani ulhashda termometrning inersionligi, tez o'zgaruvchi tezliklarni aniqlashda spidometrning inersionlik xossalari va h.k.) ga bog'liq bo'lgan noaniqliklar misol bo'la oladi [2].

Kvantlash jarayonida uzlusiz o'zgaruvchi  $X$  kattalikni, pog'onalarining q o'lchamlari berilgan pog'onali o'zgaruvchi  $X_N = N_q$  kattalikka o'lchovli almashtirish sodir bo'ladi. Bunda  $X$  kattalikning mumkin bo'lgan qiymatlarining cheksiz

to‘plamiga mumkin bo‘lgan ko‘rsatuvlarning yoki raqamli qurilmaning chiqish kodlarining chekli va hisobli N to‘plami mos keltiriladi.

Kvantlash, ya’ni o‘lchovli almashtirish, o‘lchami uzlusiz o‘zgaruvchi X kattalikning razryad sonlari cheklangan son N bilan almashtirishda paydo bo‘ladigan xatolikka ega. Kvantlash xatoligi, agar o‘lchov va komparatorning xatoligi nolga teng bo‘lsa, o‘lhash natijasi bilan X kattalikning xaqiqiy qiymati o‘rtasidagi farqqa teng:


$$\square_k \square X_N \square \square \square X \quad (1)$$

Demak, (1) ga binoan, kvantlash  $\Delta$ xatoligining o‘lchanadigan X kattalikka bog‘liqligi kvantlash q qadami chegaralarida chiziqli bo‘ladi [2].

Raqamli o‘lhash vositalarida ikkita  $X_N$  va  $X_{N+1}$ , kvantlash darajalarida joylashgan, o‘lchanadigan X kattalik, odatda, quyi raqamli qiymat bilan ifodalanadi. Bu holda kvantlash xatoligi  $\Delta_k$  doim manfiy bo‘ladi, uning maksimal qiymati esa kvantlash qadami q ga teng bo‘ladi.

*O‘lhash vositasining tayyorlash texnologiyasi yoki konstruksiyasidagi kamchilikka bog‘liq bo‘lgan noaniqliklar.*

1-rasmda, masalan, sekundomerdagи aylanuvchi qismlarning eksentrikligi sababli sodir bo‘ladigan  $\Delta_s$  xatolik ko‘rib chiqilgan (1-rasm). Bu xatolik  $\Delta\varphi = e \cdot \cos\varphi$  sinusoidal qonun bo‘yicha davriy o‘zgaradi.



1-rasm. Sekundomerdagи aylanuvchi qismlar sxema

$e$  – milning shkala markaziga nisbatan siljishi (eksentriskitet);

$\varphi$  – milning burilish burchagi

### *O'lchash sharoitlarining noaniqliklari*

Ko'rilayotgan noaniqlikka temperatura, namlik, bosim, binoning tozaligi, magnit va gravitatsion maydonlar, titrashlar, turli nurlanishlar, yorug'lik va h.k. larni o'lchash va tutib turish noaniqliklari kiradi.

Masalan, o'lchov shisha idishi o'zi kalibrangan temperaturadan farqlanuvchi temperaturada qo'llanilishi mumkin. Katta temperaturalar tuzatmalar kiritib hisobga olinishi lozim, ammo bunday holda suyuklik va shisha temperaturalarining qiymatlaridagi har qanday noaniqlikni ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Huddi shunday, agar atrof muhit namligini o'lchashda qo'llaniladigan materiallar namlikning o'zgarishiga sezgir bo'lsa, atrof muhit namligining qiymati ham ahamiyatga ega bo'lishi mumkin [3].

O'lchash vositalarining noaniqliklariga noaniq kalibrlash, ko'rsatuvlarning variatsiyalanishi, oxirgi qiyoslash va kalibrashdan keyin o'tgan vaqt, o'lchash vositasining sezgirlik chegarasi yoki chekka ajrata olish qobiliyati va h.k. ga bog'liq bo'lgan noaniqliklar ham kiradi.

Namuna yoki aniqlanadigan komponentning barqarorligi, issiqlik rejimining o'zgarishi yoki boshqa effekt tufayli, taxlil vaqtida o'zgarishi mumkin [2, 3].

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

6. Рахматов Д.И., Сайдова А.Х., Мохилова Н.Т., Тухтамишова М.Ш. Автоматизация технологических процессов и производств // Интернаука: электрон. научн. журн. 2022. – №. 18-5. – С. 23-25. <https://internauka.org/journal/science/internauka/241>
7. Рахматов Д.И., Абдужабборова Да. Разработка методики калибровки средств измерений //Студенческий вестник. – 2021. – №. 3-5. – С. 47-49. <https://elibrary.ru/item.asp?id=44681682>
8. Kabulov, A., Kalandarov, I., Raxmatov, D., & Namozov, N. (2023). Control system and algorithm for construction of optimal technological routes for machining parts in the machining shop [https://doi.org/10.1007/978-3-031-21219-2\\_288](https://doi.org/10.1007/978-3-031-21219-2_288)